



URBAN LANDSCAPE ARCHITECTURE AND PUBLIC SPACES: GLOBAL EXPERIENCE AND OPPORTUNITIES FOR EFFECTIVE APPLICATION IN UZBEKISTAN

Dots. K.D. Sattarova

Mag. O.A. Egamshukurova

(egamshukurova1999@gmail.com)

Tashkent University of Architecture and Civil Engineering,
Uzbekistan

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18494449>

ARTICLE INFO

Received: 28th January 2026

Accepted: 04th February 2026

Online: 05th February 2026

KEYWORDS

Urban landscape architecture,
public spaces, public squares,
sustainable urban
development, green
infrastructure, human-
centered design, urban
microclimate, environmental
sustainability.

ABSTRACT

This scientific article provides a systematic analysis of international experience in the architectural and landscape organization of public spaces and examines the possibilities of its effective application in the context of Uzbekistan. The study explores the functional, ecological, and social significance of public spaces within the urban environment and highlights their role in sustainable urban development. Using examples from major cities around the world, the article analyzes approaches focused on human-centered design, the development of green infrastructure, and the improvement of urban microclimate. Particular attention is given to the importance of adapting global practices to local climatic conditions, historical and architectural heritage, and national cultural characteristics. The research findings have practical relevance for urban planning and landscape architecture practices.

ГОРОДСКАЯ ЛАНДШАФТНАЯ АРХИТЕКТУРА И ОБЩЕСТВЕННЫЕ ПРОСТРАНСТВА: МИРОВОЙ ОПЫТ И ВОЗМОЖНОСТИ ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Доц. К.Д. Саттарова

Маг. О.А. Эгамшукурова

(egamshukurova1999@gmail.com)

Ташкентский Архитектурно-Строительный Университет, Узбекистан

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18494449>

ARTICLE INFO

Received: 28th January 2026

Accepted: 04th February 2026

Online: 05th February 2026

ABSTRACT

В данной научной статье проводится системный анализ мирового опыта архитектурно-ландшафтной организации общественных пространств и обосновываются возможности его эффективного применения в условиях Узбекистана. В данной статье раскрывается



KEYWORDS

Городская ландшафтная архитектура, общественные пространства, общественные площади, устойчивое развитие городов, зелёная инфраструктура, человеко-ориентированный дизайн, городской микроклимат, экологическая устойчивость.

ландшафтная организация территорий общественных пространств, функциональное, экологическое и социальное значение общественных пространств в структуре городской среды, а также их роль в обеспечении устойчивого развития городов. На примере современных проектов крупнейших городов мира рассматриваются подходы, направленные на ориентацию общественных пространств на человека, развитие зелёной инфраструктуры и улучшение городского микроклимата. Особое внимание уделяется необходимости адаптации международного опыта с учётом климатических условий, историко-архитектурного наследия и национальных традиций Узбекистана. Результаты исследования имеют практическую ценность для современного градостроительства и ландшафтной архитектуры.

SHAHAR LANDSHAFT ARXITEKTURASI VA JAMOAT MAYDONLARI: JAHON TAJRIBASI VA O'ZBEKISTONDA SAMARALI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Dots. K.D. Sattarova

Mag. O.A. Egamshukurova

(egamshukurova1999@gmail.com)

Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti, O'zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18494449>

ARTICLE INFO

Received: 28th January 2026

Accepted: 04th February 2026

Online: 05th February 2026

KEYWORDS

Shahar landshaft arxitekturasi, jamoat maydonlari, jamoat makonlari, barqaror shahar rivojlanishi, yashil infratuzilma, inson omiliga yo'naltirilgan dizayn, shahar mikroiklimi, ekologik barqarorlik.

ABSTRACT

Mazkur ilmiy maqolada shahar landshaft arxitekturasi va jamoat maydonlarini tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi tizimli ravishda tahlil qilinadi hamda ushbu tajribalarni O'zbekiston sharoitida samarali qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot davomida jamoat maydonlarining shahar muhitidagi funksional, ekologik va ijtimoiy ahamiyati ochib berilib, ularning barqaror shahar rivojlanishidagi o'rni ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Dunyoning yirik shaharlarida amalga oshirilgan zamonaviy arxitektura-landshaft loyihalari misolida jamoat makonlarini inson omiliga yo'naltirish, yashil infratuzilmani rivojlantirish va mikroiklimni yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston shaharlarida jamoat maydonlarini rejalashtirishda iqlim sharoiti, tarixiy-me'moriy meros va milliy madaniyatni hisobga



olgan holda xalqaro tajribani moslashtirish zarurligi asoslab beriladi. Maqola natijalari shaharsozlik va landshaft arxitekturasi sohasida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jamoat makonlarini rivojlantirishga oid qarorlar qabul qilishda foydalanilishi mumkin.

Kirish. Zamonaviy shaharsozlik sharoitida jamoat maydonlari hamda ularning arxitektura-landshaft jihatdan to'g'ri tashkil etilishi shahar muhitining umumiy sifati va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bunday maydonlar faqatgina hududiy rejalashtirish manbasi bo'lib qolmay, balki aholining ijtimoiy hayoti, madaniy muloqoti va ekologik sharoitini ta'minlovchi muhim jamoat makoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois, bugungi kunda dunyoning rivojlangan shaharlarida jamoat maydonlarini loyihalash jarayonida inson ehtiyojlari, ekologik barqarorlik hamda estetik uyg'unlik asosiy ustuvor tamoyillar sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar jamoat maydonlarining shahar muhitidagi ekologik va ijtimoiy ahamiyatini yaqqol tasdiqlamoqda. Xususan, BMTning Yashash muhitini rivojlantirish dasturi (UN-Habitat) ma'lumotlariga ko'ra, puxta rejalashtirilgan jamoat maydonlari shahar aholisi salomatligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, iqlim o'zgarishiga moslashuv imkoniyatlarini kengaytiradi hamda shaharlarning iqtisodiy jozibadorligini

oshiradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rivojlangan shaharlar hududining qariyb yarmi jamoat joylari hisobiga to'g'ri keladi, biroq amaliyotda dunyo shaharlarining faqat oz qismi ushbu ko'rsatkichga erisha olgan. Sifatli jamoat makonlarining yetishmasligi shahar hayot sifati pasayishiga olib kelib, jinoyatchilikning ortishi, ijtimoiy keskinliklarning kuchayishi, aholi salomatligiga salbiy ta'sir hamda transport tirbandliklarining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun, jamoat joylari shahar faoliyatini takomillashtirish, xavfsizlikni ta'minlash, mahalliy iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash hamda tabiiy muhitni shahar hududiga qaytarishning samarali vositasi sifatida qaraladi¹. Bugungi kunda Nyu-York, London, Parij va Singapur kabi yirik shaharlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamoat maydonlarini landshaft arxitekturasi asosida qayta tashkil etish orqali ularni ekologik jihatdan samarali, funksional va estetik jihatdan jozibador makonga aylantirish mumkin. Ushbu yondashuvlar yashil infratuzilmani rivojlantirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, shahar mikroiklimini yaxshilash hamda "issiq oroli" effektini kamaytirishga xizmat qilmoqda.

¹ UN-Habitat. Public Space and Sustainable Urban Development. – 2020/
<https://unhabitat.org/topic/public-space>



O'zbekiston shaharlarida ham jamoat maydonlarini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Iqlim sharoiti, tarixiy-me'moriy meros va milliy madaniyatni hisobga olgan holda xalqaro tajribani moslashtirish shahar muhitining sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishiga zamin yaratadi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada dunyoning rivojlangan shaharlaridagi arxitektura-landshaft tajribalarini ilmiy tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llashning ijobiy jihatlari asoslash maqsad qilib olingan.

Asosiy qisim. So'nggi o'n yilliklarda jahon shaharsozlik amaliyotida jamoat maydonlarini loyihalashga bo'lgan yondashuv tubdan o'zgardi. Avval maydonlar asosan monumental va transportga yo'naltirilgan hudud sifatida shakllantirilgan bo'lsa, bugungi kunda ular inson ehtiyojlari, ijtimoiy muloqot va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi ko'p funksiyali makon sifatida qaralmoqda. BMTning Yashash muhitini rivojlantirish dasturi tashkiloti jamoat maydonlarini "shahar hayotining yuragi" deb baholab, ularning sifatli tashkil etilishi shahar barqaror rivojlanishining muhim ko'rsatkichi ekanini ta'kidlaydi². Ushbu yondashuvga ko'ra, jamoat maydonlari barcha aholi qatlamlari uchun ochiq, xavfsiz, ekologik barqaror va estetik jihatdan jozibador bo'lishi lozim.

² UN-Habitat. Public Space and Sustainable Urban Development. – 2020/

<https://unhabitat.org/topic/public-space>

³ Friends of the High Line. 2000-2026. <https://www.thehighline.org>

⁴ 3 Green Infrastructure and Economic Growth Case Studies – The Highline Linear Park, New York City, USA. 1library. <https://1library.net/article/the-highline-linear-park->

Nyu-York shahri tajribasi. Nyu-York shahri jamoat maydonlarini zamonaviy arxitektura-landshaft yondashuvlar asosida qayta tashkil etish borasida yetakchi tajribaga ega shaharlar qatoriga kiradi. Nyu-Yorkdagi Central Park va High Line loyihalari shahar ichida tabiiy muhitni yaratishning yorqin namunasi hisoblanadi. High Line eski temiryo'l infratuzilmasini jamoat bog'iga aylantirish orqali sanoat hududlarini qayta funksionallashtirishning muvaffaqiyatli tajribasini namoyon etdi³. High Line bog'i landschaft arxitekturasi orqali ekologik muhitni yaxshilash, shahar aholisi uchun ijodiy makon yaratish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, loyiha atrofidagi hududlarda ko'chmas mulk qiymati sezilarli darajada oshgan, shuningdek, turizm oqimi kuchaygan⁴. Shaharsozlik mutaxassisi **James Corner**, loyiha mualliflaridan biri, shunday deydi: "Landscape architecture has the power to reshape the social and ecological life of cities" — "Landschaft arxitekturasi shaharlarning ijtimoiy va ekologik hayotini qayta shakllantirish kuchiga ega"⁵ ushbu so'zlar qayta shakllantirilgan maydon atrofidagi hududlar qiymati oshganligi bilan o'z tasdig'ini topgan.

Yevropa shaharlarida jamoat maydonlari: tarix va zamonaviylik uyg'unligi. Yevropa shaharlarida jamoat maydonlari ko'pincha tarixiy qatlamlar bilan uzviy bog'langan holda rivojlanadi.

[new-york-city-](https://www.new-york-city-usa.q7w89jdz?utm_source=chatgpt.com)

[usa.q7w89jdz?utm_source=chatgpt.com](https://www.new-york-city-usa.q7w89jdz?utm_source=chatgpt.com)

⁵ James Corner: "Landscape architects are the unsung heroes of the public realm". Leisure Media. https://www.leisureopportunities.co.uk/news/James-Corner-High-Line-New-York-Manhattan-landscape-architecture-design-Field-Operations/331820?source=related&utm_source=c [hatgpt.com](https://www.leisureopportunities.co.uk/news/James-Corner-High-Line-New-York-Manhattan-landscape-architecture-design-Field-Operations/331820?source=related&utm_source=c)



Parijdagi Place de la République maydoni rekonstruksiya bunga yaqqol misol bo'la oladi. Ushbu loyiha orqali transport ustuvorligi qisqartirilib, piyodalar va jamoaviy faoliyat uchun keng ochiq makon yaratildi⁶. Rekonstruksiya natijasida maydon ijtimoiy tadbirlar, madaniy uchrashuvlar va fuqarolik faolligi markaziga aylandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, piyodalarga yo'naltirilgan jamoat maydonlari shahar xavfsizligini oshiradi va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi.

Brazilya Mashiach maydoni o'simlik merosini saqlab qolish loyiha asosiy yo'nalishlaridan bir loyiha edi. Shu boisdan loyiha natijasida barcha mavjud daraxtlar saqlanib qoldi va 78 ta yangi mahalliy daraxt ekildi, ular o'simliklar xilma-xilligini oshiradigan va mahalliy faunani o'ziga jalb qiladigan tuproq qoplami va butalar bilan to'ldirildi. 2025-yil fevral oyida yakunlangan jonlantirish shaharga xavfsizroq, qulayroq va ekologik jihatdan qulay jamoat maydonini qaytaradi, maydonni dam olish maskani va tarixiy qurg'oqchil hududda shahar sovutish zonasi sifatida birlashtiradi⁷.

Osiyo shaharlari tajribasi. Osiyo mintaqasida, xususan **Singapur** shahri jamoat maydonlarini ekologik barqarorlik asosida rejalashtirishda

ilg'or tajribaga ega. "Garden City" konsepsiyasi doirasida shahar hududining katta qismi yashil maydonlar, bog'lar va jamoat parklaridan iborat⁸. Singapur tajribasi shuni ko'rsatadiki, landshaft arxitekturasi shahar iqlimini yumshatish, havoning sifatini yaxshilash va aholining turmush darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Jahon banki tadqiqotlariga ko'ra, yashil infratuzilma issiqlik oroli effektini 2–4°C gacha kamaytirishi mumkin⁹.

Jahon tajribalarini O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari va ijobiy jihatlari. O'zbekiston shaharlarida jamoat maydonlari tarixan jamiyat hayotida muhim ijtimoiy va madaniy vazifani bajarib kelgan. Samarqanddagi Registon maydoni, Toshkent shahridagi Mustaqillik maydoni hamda Xiva shahrining Ichan qal'a hududidagi ochiq makonlar nafaqat noyob me'moriy yodgorliklar majmuasi, balki asrlar davomida jamoat hayoti, madaniy muloqot va ijtimoiy faollik markazi sifatida shakllangan. Ushbu maydonlar xalq yig'inlari, bayramlar, savdo va madaniy tadbirlar o'tkaziladigan ochiq va markaziy makon sifatida jamiyatni birlashtiruvchi muhim tuzilma bo'lib xizmat qilgan. Mazkur jamoat makonlariga xos bo'lgan ochiqlik,

⁶ Pedestrian plaza at the heart of Paris. Middle East Architect. 2026. https://www.middleeastarchitect.com/insight/pedestrian-plaza-at-the-heart-of-paris?utm_source=chatgpt.com

⁷ Mashiach Now Square / Natureza Urbana. ArchDaily, part of DAAily platforms AG 2008-2026 ISSN 0719-8884. <https://www.archdaily.com/1038018/mashiach-now-square-natureza-urbana>

⁸ This City Aims to Be the World's Greenest. Amy Kolczak. 2015-2026 National Geographic

Partners, LLC. https://www.nationalgeographic.com/environment/article/green-urban-landscape-cities-Singapore?utm_source=chatgpt.com

⁹ Cool solutions for a hotter climate: Tackling urban heat island effect with innovation. Phua Shi Hui. – September 07, 2023. https://blogs.worldbank.org/en/sustainablecities/cool-solutions-hotter-climate-tackling-urban-heat-island-effect-innovation?utm_source=chatgpt.com



markaziylik va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirilganlik tamoyillari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Biroq zamonaviy urbanizatsiya jarayonlari, transport infratuzilmasining keskin kengayishi hamda ekologik muammolarning kuchayishi shahar jamoat maydonlarining funksional va ekologik sifatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, yoz mavsumida yuqori haroratning kuzatilishi, yashil hududlar ulushining yetarli emasligi, soyali joylar va piyodalar uchun qulay muhitning cheklanganligi O'zbekiston shaharlarida dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois, jamoat maydonlarini rivojlantirishda tarixiy makonlarning an'anaviy funksiyalarini saqlab qolgan holda, zamonaviy landshaft yondashuvlari, ekologik barqarorlik va inson ehtiyojlariga mos dizayn yechimlarini uyg'unlashtirish zarurati tobora ortib bormoqda.

Iqlim omilini hisobga olgan landshaft yondashuvlar.

O'zbekistonning kontinental iqlim sharoitida jamoat maydonlarini loyihalashda landshaft arxitekturasi ekologik funksiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yashil maydonlar, daraxtzorlar va suv elementlari shahar mikroiklimini sezilarli darajada yumshatadi. Masalan, Singapur va Barselona shaharlarida yashil

infratuzilma orqali havoning o'rtacha harorati pasaytirilgani ilmiy tadqiqotlar bilan isbotlangan¹⁰. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston shaharlarida jamoat maydonlarini rivojlantirishda soyali xiyobonlar, vertikal ko'kalamzorlashtirish, suv havzalari va favvoralardan oqilona foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mashhur landshaft me'mori **Frederick Law Olmsted** shunday degan edi: "Bog'lar shaharning o'pkasidir¹¹". Mazkur fikr yashil hududlarning shahar ekologik salomatligidagi rolini aniq ifodalaydi va mamlakatimiz hududida ham bog'larni ko'plab tashkil etilishi nafaqat landshaft jihatidan go'zallashtirish balki, aholi salomatligiga qo'shilgan hissa ham bo'ladi.

Ijtimoiy faollik va jamoat makonlarining inson omiliga yo'naltirilishi.

Jamoat maydonlarining samaradorligi, avvalo, ularning aholi tomonidan qanchalik faol foydalanilishi bilan belgilanadi. O'zbekiston sharoitida bu yondashuv ayniqsa muhim bo'lib, bozorlar, madaniy tadbirlar, ommaviy bayramlar uchun moslashuvchan ochiq maydonlar yaratishni talab etadi. Toshkent shahrida amalga oshirilayotgan "Yangi O'zbekiston" bog'i va "Yashil Toshkent" loyihalari jamoat makonlarini zamonaviy landshaft yondashuvlar asosida rivojlantirishga qaratilgan muhim qadamlardan biridir¹². Ushbu tashabbuslar aholining dam olishi,

¹⁰ Cool solutions for a hotter climate: Tackling urban heat island effect with innovation. Phua Shi Hui. – September 07, 2023. https://blogs.worldbank.org/en/sustainablecities/cool-solutions-hotter-climate-tackling-urban-heat-island-effect-innovation?utm_source=chatgpt.com

¹¹ Public Health. Olmsted Network. <https://olmsted.org/frederick-law-olmsted/legacy/>

¹² "Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi. – 24.11.2025. – 229-son / <https://lex.uz/uz/docs/-7852957>



sport bilan shug'ullanishi va ijtimoiy muloqoti uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodiy va madaniy samaradorlik. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sifatli tashkil etilgan jamoat maydonlari shahar iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nyu-Yorkdagi High Line loyihasi atrofidagi hududlarda kichik biznes va turizmning jadal rivojlanishiga sabab bo'lganligini quyida keltirib o'tdik. Shu kabi yondashuvlar O'zbekiston shaharlarida ham xizmat ko'rsatish sohasi va ichki turizmni rivojlantirish imkonini beradi. Madaniy nuqtai nazardan esa, jamoat maydonlari milliy an'analar va zamonaviy dizayn uyg'unligini aks ettiruvchi muhim makon hisoblanadi. Shahar shunday joyki o'tmish, bugun va kelajak uyerda o'zini namoish etadi. Shundan kelib chiqqan holda O'zbekiston shaharlarida tarixiy merosni saqlagan holda zamonaviy jamoat maydonlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa. Olib borilgan ilmiy tahlil shuni ko'rsatadiki, jamoat maydonlarining arxitektura-landshaft tashkil etilishi zamonaviy shaharsozlikning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u shahar muhitining ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Dunyoning yirik shaharlarida — Nyu-York, Parij, London, Singapur kabi markazlarda amalga oshirilgan loyihalar jamoat maydonlarini inson ehtiyojlariga yo'naltirilgan, ko'p funksiyali va ekologik samarali makon sifatida shakllantirish mumkinligini amaliy jihatdan isbotlab bermoqda.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy jamoat maydonlari faqat estetik makon bo'lish bilan cheklanmay, balki ijtimoiy muloqot, madaniy integratsiya va shahar identitetini mustahkamlash vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston shaharlarida jamoat maydonlarini rivojlantirishda ushbu jahon tajribalarini bevosita ko'chirib qo'llash emas, balki ularni mahalliy iqlim sharoiti, milliy madaniyat va tarixiy-me'moriy meros bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, soyali landshaft elementlari, suv inshootlari, ko'kalamzorlashtirish hamda an'anaviy ochiq makon tushunchalarini zamonaviy dizayn bilan uyg'unlashtirish O'zbekiston shaharlarida qulay va barqaror jamoat makonlarini yaratish imkonini beradi. Shuningdek, sifatli tashkil etilgan jamoat maydonlari shahar iqtisodiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, jamoat maydonlarini rejalashtirish va rekonstruksiya qilish jarayonlarida landschaft arxitekturasi tamoyillarini shaharsozlik siyosatining ajralmas qismi sifatida qarash maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, jahon tajribalariga tayangan holda, ammo milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda rivojlantirilgan jamoat maydonlari O'zbekiston shaharlarining barqaror rivojlanishi, ekologik muvozanati va ijtimoiy faolligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.



References:

1. UN-Habitat. Public Space and Sustainable Urban Development. – 2020/
<https://unhabitat.org/topic/public-space>
2. Friends of the High Line. 2000-2026. <https://www.thehighline.org>
3. Green Infrastructure and Economic Growth Case Studies – The Highline Linear Park, New York City, USA. 1library. https://1library.net/article/the-highline-linear-park-new-york-city-usa.q7w89jdz?utm_source=chatgpt.com
4. James Corner: “Landscape architects are the unsung heroes of the public realm”. Leisure Media. https://www.leisureopportunities.co.uk/news/James-Corner-High-Line-New-York-Manhattan-landscape-architecture-design-Field-Operations/331820?source=related&utm_source=chatgpt.com
5. Pedestrian plaza at the heart of Paris. Middle East Architect. 2026.
1. https://www.middleeastarchitect.com/insight/pedestrian-plaza-at-the-heart-of-paris?utm_source=chatgpt.com
6. Mashiach Now Square / Natureza Urbana. ArchDaily, part of DAAily platforms AG 2008-2026. ISSN 0719-8884. <https://www.archdaily.com/1038018/mashiach-now-square-natureza-urbana>
7. This City Aims to Be the World's Greenest. Amy Kolczak. 2015-2026. National Geographic Partners, LLC.
https://www.nationalgeographic.com/environment/article/green-urban-landscape-cities-Singapore?utm_source=chatgpt.com
8. Cool solutions for a hotter climate: Tackling urban heat island effect with innovation. Phua Shi Hui. – September 07, 2023.
https://blogs.worldbank.org/en/sustainablecities/cool-solutions-hotter-climate-tackling-urban-heat-island-effect-innovation?utm_source=chatgpt.com
9. Cool solutions for a hotter climate: Tackling urban heat island effect with innovation. Phua Shi Hui. – September 07, 2023.
https://blogs.worldbank.org/en/sustainablecities/cool-solutions-hotter-climate-tackling-urban-heat-island-effect-innovation?utm_source=chatgpt.com
10. Public Health. Olmsted Network. <https://olmsted.org/frederick-law-olmsted/legacy/>
11. “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni / Qonunchilik ma'lumotlar milliy bazasi. – 24.11.2025. – 229-son / <https://lex.uz/uz/docs/-7852957>